

O'ZBEKİSTONDA OLİY HARBIY AKADEMIYALARİNG TASHKIL ETİLİŞİ VA FAOLİYATI

Yaqubov G'ulomjon Saloxiddinovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

ОРГАНИЗАЦИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ АКАДЕМИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Якубов Гуломжон Салохиддинович

Преподаватель Узбекско-Финского педагогического института

ORGANIZATION AND ACTIVITY OF HIGHER MILITARY ACADEMIES IN UZBEKISTAN

Yakubov Gulomjon Salokhiddinovich

Lecturer at the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute



E-mail:

yaqubovg'ulomjon@gmail.com

Orcid: 0004-0022-6030-
1054

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston sharoitida oliy harbiy akademiyalarining tashkil etilishi, faoliyati hamda ularning mamlakatimiz oliy ma'lumotli harbiy kadrlar tayyorlash tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim, harbiy akademiya, Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, harbiy ta'lim tizimi.

Abstract: This scientific article analyzes the organization and activity of higher military academies in the conditions of Uzbekistan, as well as their role and importance in the system of training of highly educated military personnel of our country.

Key words: military education, military military academy, Armed Forces Academy, Academy of the Ministry of Internal Affairs, military education system.

Аннотация: В данной научной статье анализируется организация и деятельность высших военных академий в условиях Узбекистана, а также их роль и значение в системе подготовки высококвалифицированных военнослужащих нашей страны.

Ключевые слова: военное образование, военно-военная академия, Академия Вооружённых Сил, Академия МВД, система военного образования.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy mezoni shubhasiz, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikdir. Chunki, yurtimiz aholisining farovon yashashi, ularning erki va xavfsizligini kafolatlovchi harbiy kuch – milliy armiyamiz, Qurolli Kuchlarimizdir. Bugungi shiddatli globallashuv va axborot xurujlari davrida milliy

armiya ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik matabiga aylangani, hech shubhasizdir.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy akademiya – oliy harbiy va maxsus harbiy ma'lumotli ofitser kadrlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan oliy harbiy ta'lim muassasasi va harbiy muammolarni tadqiq etish ilmiy markazi hisoblanadi. Dastlab harbiy akademiyalar XVIII-asr oxiri – XIX-asr o'rtalarida

vujudga kelgan. Bu kabi dastlabki harbiy akademiyaning faoliyati bosh shtablar uchun ofitserlar kontingenitini, keyinchalik esa qo'shinlar uchun ofitserlarni va harbiy nazariya ishlab chiquvchi ofitserlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan. Harbiy akademiya yoki unga teng bo'lgan harbiy o'quv muassasalarini ko'plab mamlakatlarda mavjud. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasida harbiy akademiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 15 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 1995-yil 2 sentyabrdan tashkil etildi [1].

O'zbekiston harbiy ta'limgiz tizimi tarixidan ma'lum bo'ladiki, eng birinchi tashkil etilgan akademiyalardan biri Ichki ishlar vazirligining Ichki ishlar akademiyasi hisoblanadi. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi faoliyati tarixi XX-asrning 30-yillaridan boshlanadi. Mazkur davorda O'zbekistonning ikki shahri Samarkand va Qo'qonda miliitsiya maktablari faoliyat yuritgan. 1932-yildan e'tiboran ushbu muassasalar birlashtirilib, Toshkent o'rta maxsus miliitsiya maktabi tashkil qilingan edi. Shuningdek, 1967-yilda Toshkent oliy miliitsiya maktabi ochildi. Bu yerda dastlab ofitser kadrlarni tayyorlash yo'lda qo'yilgan. Maktabda O'zbekiston bilan bir qatorda, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalari ichki ishlar tuzilmalari uchun ham kadrlar tayyorlangan. Mazkur o'quv maskanlari O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrgacha faoliyat ko'rsatgan [2].

1991-yil 25-oktyabrda Toshkent o'rta maxsus hamda oliy miliitsiya maktablari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. 1994-yil 2-sentyabrdan Toshkent o'rta maxsus va oliy miliitsiya maktablari negizida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida harbiy xizmat tayyorgarligi bo'yicha olib boriladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar xodimlar va kursantlar xizmat va jangovar tayyorgarligining ajralmas qismidir. Ularning jangovar tayyorgarligini oshirish, har qanday vaziyatda jangovar harakatlarni mahorat bilan olib borish qurol-yarog'lar bilan bog'liq bilimlarini takomillashtirish va ulardan jangda mohirlik bilan foydalanish chuqurlashtirilgan holda o'qitilib kelinmoqda. Mashg'ulotlar rejasini ishlab

chiqarishda bevosita ishtirok etish zamonaviy jangovar harakatlarning jadal o'zgarishi bilan ifodalanmoqda. IV Akademiyasida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar xalqaro andozalar talabiga mos kelishi shart va shu bois ta'limgiz sifatini oshirish xalqaro talablar darajasida amalga oshirilmoqda [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdag'i "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarorida "ichki ishlar organlari faoliyatida, birinchi navbatda huquqbazarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyatlarni tergov qilish sohasida mavjud bo'lgan muammolar bo'yicha fundamental va amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi samaradorligini oshirish" kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida keltirilib, uni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va tizimdagi ta'limgiz muassasalarining eng muhim vazifasi deb belgilandi [4].

Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning ta'limgiz muassasalariga sakkiz ustuvor yo'nalishdagi eng muhim vazifalarni bajarish asosida xodimlarni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o'qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, majburiy qayta tayyorlash va doimiy malakasi va kadrlar salohiyatini oshirib borishning sifat jihatdan yangi tizimi yaratila boshladi. Mazkur tizim harbiy akademiyalar ta'limgiz jarayonida tinglovchi yoshlarda kasbiy bilim, insonparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini yuksak darajada rivojlantirishdan tortib, sohaviy fanlarni chuqur o'qitish, o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini keng joriy etishga qaratilganligi bilan muhim hisoblanadi [5].

Tahlil va natijalar. Harbiy ta'limgiz tizimida harbiy ta'limgiz va harbiy fan integratsiyasining yangi shakliga aylanadigan harbiy ta'limgiz va ilmiy markazlar tashkil etilmoqda. Ular o'quv jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish, harbiy fanlar, qurol-yarog' va harbiy texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun intellektual, moddiy va axborot resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilmoqda. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi mamlakatimiz huquqni

muhofaza qiluvchi organlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlab berayotgan zamonaviy bilim maskanlaridan biri sanaladi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonlari yangicha talablar asosida yo‘lga qo‘yilganiga qaramay, jahonda yuzaga kelayotgan xatarlar, kiberjinoyatchilik, terrorizm, odam savdosi kabi tahdidlar soha uchun kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirishni davr talabiga aylantirgan edi [6].

Bugungi kunda kursant va tinglovchilarining nazariy bilimlarini amaliyatda mustahkamlash, ularni kasbga yo‘naltirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Dars mashg‘ulotlariga ichki ishlar vaziri o‘rinbosarlari, sohaviy xizmatlar rahbarlari keng jalb qilinib, ular tomonidan mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Hududiy ichki ishlar organlarida sayyor mashg‘ulotlar tashkil qilinib, amaliyotdagi real vaziyat ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirildi. Shuningdek, birinchi darajadagi magistraturada ta’lim oluvchilar Ichki ishlar vazirligi departament boshliqlari, hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining bevosita murabbiyiligida amaliyot o‘tab, xorijiy huquq-tartibot idoralari ta’lim muassasalarining **boshqaruv malakasini oshirishga qaratilgan kurslarida tahsil olishmoqda**[7].

Amir Temur nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi:

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishchonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tinchlik va osoyishtalik – demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimida alohida o‘rin tutadi. Mamlakatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo‘nalishlar, davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloq qilish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xavfsizligini ta’minalashning sifat jihatdan yangi tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan mamlakat tinchligi va barqarorligini mustahkamlash, xalqimizning osoyishtaligini ta’minalash maqsadida xavfsizlik tizimlari har tomonlama takomillashtirilgan holda xavfsizlik sohasida kadrlar tayyorlash va ularning salohiyati

oshirib borilmoqda. Davlat xavfsizligi sohasida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimi 2017-yildan keyingi davrda harbiy ta’lim sohasi islohotlarining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, 2018-yil 14-martda “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi [8].

Harbiy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida Oliy harbiy ta’lim yo‘nalishida ham bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mamlakatda aholi sog‘lig‘ini saqlash va yaxshilashni ta’minalaydigan samarali sog‘lijni saqlash tizimini yaratish, sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratilgan davlat ustuvor siyosatining muhim qismi bo‘lib kelmoqda. Tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida bosqichma-bosqich milliy tibbiy ta’limni modernizatsiyalash, mazkur sohaga xalqaro ta’lim standartlari va ilg‘or axborot texnologiyalarini tatbiq etish, aholi sog‘lig‘ini saqlashning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi [9].

Mazkur yo‘nalishdagi islohotlar bosqichma-bosqich davom ettirib borilmoqda. Xususan, yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ular uchun uzlusiz, bosqichma-bosqich va maqsadli o‘qitish tizimini yaratish hamda harbiy-tibbiy sohada ta’lim, fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minalash maqsadida 2020-yilning 22-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy tibbiyot sohasida kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4870-son qarori qabul qilindi [10]. Mazkur qarorning qabul qilinishi respublika harbiy ta’lim tizimi rivojida yangi sahifa ochilishi uchun turtki bo‘lib xizmat qildi. Ya’ni, mazkur yilagacha Toshkent tibbiyot akademiyasi tuzilmasida bo‘lgan harbiy-tibbiyot fakultetining negizida Mudofaa vazirligining yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi tashkil etildi [11].

Akademianing harbiy tibbiyot o‘quv dasturi asosida ta’lim olgan bitiruvchilarining O‘zbekiston Respublikasi oliy tibbiy ta’lim muassasalarini davolash va tibbiy-profilaktika fakultetlaridagi o‘qishi Akademiyadagi o‘qishga tenglashtiriladi

hamda tibbiyot sohasidagi tor mutaxassisliklar bo‘yicha tibbiyot kadrlari Akademianing klinik ordinatura va magistraturasida, ilmiy-pedagogik kadrlar esa uning doktoranturasida tayyorlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi 1993-yil 11-avgust kuni Yong‘in xavfsizligi oliy texnik maktabi sifatida tashkil topgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son Farmoni asosida ushbu ta’lim dargohi Yong‘in xavfsizligi institutiga o‘zgartirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PF-5706-son Farmoni asosida 2020-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi tashkil etilgan. Respublikaning barcha jahbalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong‘in xavfsizligini ta’minalash, shuningdek, hayot faoliyatni xavfsizligi sohasida malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘yicha yagona yetakchi (tayanch) oliy harbiy davlat ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Harbiy ta’lim sohasida ilmiy tadqiqot yo‘nalishi mazmuni va yo‘nalishlarining kengayib borishi mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash va xavfsizligini ta’minalashga qaratilgan maxsus yo‘nalishdagi ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tajriba-konstrukturlik, amaliy va innovatsion loyihalarning bajarilishida o‘z ifodasini topmoqda.

Xulosa. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida harbiy Akademiyalar faoliyati jahon standartlari asosida amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, mazkur jihatlar akademiyalar tashkil etish yo‘nalishlaridan tortib, o‘quv jarayonining tarkibiy tuzilishi va nomzodlarni akademiyalarga saralab olish kabi jihatlarda ko‘zga tashlanadi. Jumladan, dunyo harbiy akademiyalari va O‘zbekiston harbiy akademiyalarida nomzodlarni saralab olish

jarayonida kuzatiluvchi asosiy jihat qabul jarayonlarining o‘ziga xos raqobatbardoshligidir. Saralanayotgan nomzodlar intellektual jihatdan muvaffaqiyatlari, jismonan sog‘lom va har tomonlama rivojlangan bo‘lishi ustuvor talabdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳарбий атамаларнинг қисқача изохли луғати. – Тошкент. 2007.
2. Академия тарихи. <https://akadmvd.uz/uz/nauchniy>.
3. Парманов Ф.Д. ИИВ Академиясида ҳарбий фанларни ўқитишида замонавий педагогик технологияни қўллаш истиқболлари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. 2020. №4. 167-168 б.
4. Турсунов А.С. Ички ишлар органлари тизимида фундаментал ва амалиётга йўналтирилган илмий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. 2020. №3.
5. Мухамедов Ў.Х. Ҳаракатлар стратегияси асосида ички ишлар органлари тизимида ислоҳотлар: биринчи босқич яқунлари ва истиқboldаги вазифалар. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
6. Хатамов Р. Ички ишлар органлари учун кадрлар тайёрлашда ўзгаришлар даври // Янги Ўзбекистон. 2021 йил. 27 апрел. № 83. 4 б.
7. “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
8. Халқ сўзи. 2020 йил 23 октябрь.
9. Ҳарбий тиббиёт соҳасида кадрларни тайёрлашнинг сифат жиҳатидан янги тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4870-сон қарори.
10. Эргашев Ф. Ҳарбий таълимда ўзига хос ноёб ва яхлит тизим. Халқ сўзи, 2020. №9 (12 январь).

